

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XVII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

SENTYABR, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XVII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 17-son (14-sentyabr, 2026-yil).– 132 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 11-sentyabr

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XVII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

TARIX TA'LIMI ORQALI AXLOQIY TARBIYA: XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASINING QIYOSIY-PEDAGOGIK TAHLILI

Ahmedov Nodir Kodiraliyevich

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti

mustaqil tadqiqotchisi

Tel: +998 97-256-72-82

Email: ahmedovnodir@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada tarix ta'limi orqali axloqiy tarbiyani amalga oshirishning Kanada, Amerika Qo'shma Shtatlari, Finlandiya va Singapur ta'lim tizimlaridagi modellari qiyosiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan. Har bir modelning tayanch konseptual asosi, axloqiy tarbiya mexanizmi va normativ mustahkamlanish shakli aniqlangan. Tahlil natijasida to'rtta modelni birlashtiruvchi uchta umumiy tamoyil so'rovga asoslanganlik, manba bilan bevosita ishlash va axloqiy bahoning kontekstga bog'lanishi ajratilgan. Milliy pedagogik meros manbalari bilan qiyoslash orqali mazkur tamoyillarning O'zbekiston pedagogik an'anasidagi ildizlari ko'rsatilib, xorijiy tajribani o'zlashtirishning uchta metodologik sharti asoslangan.

Kalit so'zlar: qiyosiy pedagogika, tarix ta'limi, axloqiy tarbiya, tarixiy tafakkur, so'rov yoyi, ko'ndalang kompetensiya, tarixiy tadqiqot, xorijiy tajriba, pedagogik ta'limotlar tarixi, milliy pedagogik meros.

MORAL EDUCATION THROUGH HISTORY INSTRUCTION: A COMPARATIVE-PEDAGOGICAL ANALYSIS OF THE EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES

Ahmedov Nodir Kodiraliyevich

Independent Researcher

Is'hoqxon Ibrat Namangan State Institute of Foreign Languages

Annotation. The article presents a comparative pedagogical analysis of models of moral education through history teaching in the education systems of Canada, the United States, Finland and Singapore. For each model, the underlying conceptual foundation, the mechanism of moral education and the form of its normative consolidation are identified. The analysis yields three principles common to all four models: reliance on an inquiry question, direct work with sources, and the anchoring of moral evaluation in historical context. Through comparison with sources of the national pedagogical heritage, the roots of these principles in the pedagogical tradition of Uzbekistan are demonstrated, and three methodological conditions for adopting international experience are substantiated.

Keywords: comparative pedagogy, history education, moral education, historical thinking, inquiry arc, transversal competences, historical investigation, international experience, history of pedagogical doctrines, national pedagogical heritage..

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i17/n23>

KIRISH. Xorijiy ta'lim tajribasini o'rganish milliy ta'lim tizimini takomillashtirishning zaruriy sharti hisoblanadi. Biroq bu jarayonda ikki xil xato ko'p uchraydi. Birinchisi modelni kontekstdan uzib ko'chirish, ya'ni boshqa ta'lim tizimida shakllangan yechimni uni yuzaga keltirgan sharoitni hisobga olmasdan tatbiq etishga urinish. Ikkinchisi tajribani faqat tavsiflash bilan cheklanish, ya'ni "falon davlatda shunday qilinadi" degan qaydni pedagogik xulosa o'rnida taqdim etish. Har ikki holatda ham qiyosiy tahlil o'zining asosiy vazifasini milliy tizim uchun ishlaydigan mexanizmni ajratib olish vazifasini bajarmaydi. Masalaning dolzarbligi normativ hujjatlarda belgilangan. Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasidagi hujjat sifatli ta'lim tizimini shakllantirishni strategik vazifa sifatida

ko'rsatadi[1], "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun esa ta'lim sohasidagi munosabatlarning huquqiy asosini belgilaydi[2]. Ta'lim mazmunini xalqaro darajaga yaqinlashtirish vazifasi xorijiy tajribani ilmiy tahlil qilishni taqozo etadi. Maqolaning maqsadi tarix ta'limi orqali axloqiy tarbiyaning xorijiy modellarini qiyosiy-pedagogik tahlil qilish va ularni O'zbekiston sharoitida tatbiq etishning metodologik shartlarini asoslashdan iborat. Vazifalar: to'rtta ta'lim tizimidagi modellarning konseptual asosini aniqlash; ularning axloqiy tarbiya mexanizmini ajratish; modellarni birlashtiruvchi umumiy tamoyillarni belgilash; milliy pedagogik meros bilan mosliklarni aniqlash.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Qiyosiy tahlil metodining milliy pedagogik ta'limotlar tarixidagi ildizlari chuqur. Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida turli jamiyat tiplarini qiyoslash orqali axloqiy mezon ishlab chiqqan[3]. Abu Rayhon Beruniy esa "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida turli xalqlarning urf-odat va e'tiqodini har birining o'z ichki mantiqi doirasida tavsiflash uslubini qo'llagan[4]. Beruniy uslubidagi tayanch tamoyil o'zganing tajribasini o'z mezonlari bilan hukm qilishdan oldin uni tushunish bugungi qiyosiy pedagogikaning ham asosiy metodologik talabidir. Kanada modelining konseptual asosini P. Seixas va T. Morton tomonidan tizimlashtirilgan tarixiy tafakkurning oltita tayanch tushunchasi tashkil etadi: tarixiy ahamiyat, dalil, uzluksizlik va o'zgarish, sabab va oqibat, tarixiy perspektiva hamda tarixning axloqiy o'lchovi[5]. Mazkur model tarix ta'limidagi axloqiy tarbiyaning eng aniq konseptual ifodasi hisoblanadi, chunki unda axloqiy o'lchov qo'shimcha tarbiyaviy vazifa emas, balki fanning o'z tuzilmasidagi tayanch tushuncha sifatida belgilangan. Bu tarbiyaviy komponentni o'quv natijalari tizimiga rasman kiritish tajribasidir. AQSh modeli 2013-yilda qabul qilingan ijtimoiy fanlar bo'yicha davlat standartlari asosi "so'rov yoyi" konsepsiyasiga tayanadi: o'quv jarayoni tayyor bilim bayonidan emas, tadqiqiy savolni shakllantirishdan boshlanadi, so'ng manbalarni tahlil qilish va dalilga asoslangan xulosa chiqarish bosqichlari kechadi, yakunda esa o'quvchi olingan bilimga asoslangan mas'uliyatli harakatga yo'naltiriladi[6]. Konsepsiyaning nazariy asosi S. Wineburg tadqiqotlarida ishlab chiqilgan bo'lib, muallif tarixiy tafakkur tabiiy ravishda shakllanmasligini asoslagan[7]. Ushbu yondashuvning samaradorligi empirik tekshirilgan. A. Reisman tomonidan San-Fransiskoning beshta maktabida 236 nafar o'n birinchi sinf o'quvchisi ishtirokida o'tkazilgan olti oylik tajriba-sinov ishida nazorat guruhi bilan qiyoslash asosida hujjat asosidagi darslar samaradorligi o'lchangan; MANCOVA tahlili to'rtta ko'rsatkichning barchasi tarixiy tafakkur, ko'nikmalarni zamonaviy masalalarga ko'chirish, faktik bilim va umumiy o'qish tushunish darajasi bo'yicha statistik ahamiyatli natija bergan[8]. Bu manba bilan ishlash texnologiyasining tarbiyaviy va ta'limiy samaradorligini tasdiqlovchi eng ishonchli empirik dalillardan biridir. Finlandiya modeli boshqa mantiqqa asoslanadi. 2014-yilgi umumiy o'rta ta'lim milliy o'quv dasturi asosida axloqiy va madaniy jihatlar alohida fan doirasida emas, balki barcha fanlar orqali shakllantiriladigan ko'ndalang kompetensiyalar tizimi sifatida belgilangan[9]. Bu yondashuvning kuchli tomoni tarbiyaviy natija butun o'quv jarayonining umumiy vazifasiga aylanadi; zaif tomoni esa mas'uliyatning taqsimlanishi natijasida aniq nazorat qilinadigan natija chegarasining xiralashishidir. Singapur modelida tarixiy tadqiqot alohida majburiy element sifatida o'quv dasturiga kiritilgan. 2021-yilgi quyi bosqich tarix dasturiga ko'ra, o'quvchilar tadqiqot savolini ochish, savollar qo'yish, manbalarni to'plash va tanlash, tanlangan manbalarni tahlil qilish hamda guruh xulosasini taqdim etish bosqichlaridan iborat jarayonni bajaradilar[10]. Yuqori bosqich dasturida esa manbaga asoslangan holat tahlili

baholashning asosiy shakllaridan biri sifatida belgilangan[11]. Demak, Singapur tajribasining o'ziga xosligi tarbiyaviy-tadqiqiy faoliyatning baholash tizimiga rasman bog'lanishidir.

Qiyosiy tahlilning nazariy ramkasi sifatida K. Barton va L. Levstik konsepsiyasi qo'llanildi: mualliflar tarix ta'limining ijtimoiy vazifalarini tahlil qilib, o'quvchining o'tmishga munosabatidagi axloqiy javob yondashuvini ajratgan va tarix ta'limi demokratik jamiyatda umumiy manfaat yo'lidagi ishtirokchilikka xizmat qilishi lozimligini asoslagan[12]. Mazkur ramka turli milliy modellarni yagona mezon asosida qiyoslash imkonini beradi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida qiyosiy-pedagogik tahlil, normativ hujjatlarni kontent-tahlil qilish, pedagogik ta'limotlar tarixiga oid manbalarni retrospektiv tahlil qilish va tizimli yondashuv qo'llanildi. Tahlil manbalari sifatida tegishli davlatlarning rasmiy o'quv dasturlari va standartlari hamda taqriz qilinadigan ilmiy nashrlar olindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Tadqiqotning birinchi natijasi to'rtta modelning qiyosiy tavsifi. Natijalar quyidagi jadvalda umumlashtirilgan (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

Tarix ta'limi orqali axloqiy tarbiya modellarining qiyosiy tavsifi

Davlat	Tayanch model	Axloqiy tarbiya mexanizmi	O'zbekiston sharoitida tatbiq imkoniyati
Kanada	Tarixiy tafakkurning oltita tayanch tushunchasi	"Tarixning axloqiy o'lchovi" alohida tayanch tushuncha sifatida ajratilgan	O'quv dasturiga axloqiy o'lchov bo'yicha alohida natija kiritish
AQSh	So'rov yoyi (Inquiry Arc) va hujjat asosidagi dars	Savol qo'yish — manba tahlili — dalilga asoslangan xulosa — mas'uliyatli harakat	Dars tuzilmasini savoldan boshlanadigan modelga o'tkazish
Finlandiya	Ko'ndalang kompetensiyalar tizimi	Axloqiy va madaniy kompetensiya barcha fanlarda shakllantiriladi	Fanlararo tarbiyaviy natijalarni umumiy dasturga kiritish
Singapur	Tarixiy tadqiqot (Historical Investigation)	Guruhda manbalarni qiyoslash va umumiy xulosa chiqarish	Har yili bitta tadqiqot loyihasini majburiy element sifatida joriy etish

1-jadval tahlili modellar o'rtasidagi tamoyiliy farqni ko'rsatadi. Kanada modeli axloqiy o'lchovni fanning konseptual tuzilmasiga kiritadi; AQSh modeli uni dars tuzilmasiga so'rov yoyiga bog'laydi; Finlandiya modeli butun o'quv rejasiga tarqatadi; Singapur modeli esa baholash tizimiga mustahkamlaydi. Ya'ni to'rtta tizim bir xil vazifani to'rt xil normativ nuqtada hal qilgan: mazmun, metod, dastur va nazorat darajalarida. Tadqiqotning ikkinchi natijasi modellarni birlashtiruvchi umumiy tamoyillarni ajratish. Farqlarga qaramay, to'rtala tizimda uchta umumiy tamoyil kuzatiladi. Birinchi tamoyil so'rovga asoslanganlik: o'quv jarayoni tayyor xulosani yetkazishdan emas, savol qo'yishdan boshlanadi. Ikkinchi tamoyil manba bilan bevosita ishlash: o'quvchi tarixiy xulosani darslik bayonidan emas, birlamchi materialni tahlil

qilish orqali oladi. Uchinchi tamoyil axloqiy bahoning kontekstga bog'lanishi: o'tmishdagi qaror uning davri sharoitida baholanadi.

Ushbu uch tamoyilning ahamiyati shundaki, ular texnik yechim emas, balki pedagogik pozitsiyani ifodalaydi: o'quvchi axloqiy hukmni tashqaridan qabul qiluvchi emas, uni mustaqil shakllantiruvchi subyekt sifatida qaraladi. Aynan shu pozitsiya axloqiy dunyoqarashning barqarorligini ta'minlaydi, chunki tashqaridan berilgan baho vaziyat o'zgarishi bilan yo'qoladi, mustaqil shakllantirilgan baho esa saqlanadi. Tadqiqotning uchinchi natijasi mazkur tamoyillarning milliy pedagogik an'adagi ildizlarini aniqlash. Beruniyning o'zga madaniyatni uning o'z mezonlari doirasida tavsiflash uslubi uchinchi tamoyil axloqiy bahoni kontekstga bog'lash bilan bevosita mos keladi. Forobiyning turli jamiyat tiplarini qiyoslash orqali mezon ishlab chiqish yondashuvi esa birinchi tamoyil, ya'ni tahliliy savoldan boshlanuvchi bilim olish mantig'iga yaqin turadi. Demak, xorijiy modellardagi tayanch tamoyillar milliy pedagogik an'ana uchun begona emas; masala ularni zamonaviy didaktik shaklda qayta tiklashdadir.

Tadqiqotning to'rtinchi natijasi xorijiy tajribani tatbiq etishning metodologik shartlarini asoslash. Birinchi shart modelni emas, mexanizmni ko'chirish: Singapur tajribasidan "tarixiy tadqiqot" nomi emas, uning besh bosqichli tuzilmasi olinadi va milliy o'quv mazmuniga moslashtiriladi. Ikkinchi shart normativ nuqtani aniqlash: yangilik qaysi darajada dastur, dars tuzilmasi yoki baholash tizimida mustahkamlanishi oldindan belgilanishi lozim, aks holda u tavsiya darajasida qolib ketadi. Uchinchi shart o'qituvchi tayyorgarligini oldindan ta'minlash: manba bilan ishlash va munozara tashkil etish metodikasi maxsus o'rgatilmasa, texnologiya rasmiy shaklga aylanadi. Olingan natijalarni muhokama qilishda bitta jiddiy cheklovni qayd etish lozim. Keltirilgan modellarning samaradorligi tegishli mamlakatlarning o'z ta'lim tizimi sharoitida o'lchangan; ularning O'zbekiston sharoitidagi samaradorligi haqida hech qanday empirik ma'lumot mavjud emas. Shu bois maqolada bayon etilgan tatbiq imkoniyatlari farazlar sifatida taqdim etiladi va ular tajriba-sinov ishlari orqali tekshirilishi shart.

XULOSA. O'tkazilgan qiyosiy-pedagogik tadqiqot quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi. Birinchidan, tarix ta'limi orqali axloqiy tarbiyaning to'rtta xorijiy modeli bir xil vazifani turli normativ nuqtalarda hal qiladi: Kanada fan mazmunida, AQSh dars tuzilmasida, Finlandiya umumiy o'quv rejasida, Singapur baholash tizimida.

Ikkinchidan, farqlarga qaramay, to'rtala model uchta umumiy tamoyilga tayanadi: so'rovga asoslanganlik, manba bilan bevosita ishlash va axloqiy bahoning kontekstga bog'lanishi. Uchinchidan, mazkur tamoyillar milliy pedagogik an'ana uchun begona emas: Beruniyning xolis tavsif uslubi va Forobiyning qiyosiy mezon ishlab chiqish yondashuvi ular bilan mazmunan mos keladi. To'rtinchidan, xorijiy tajribani tatbiq etish uchta shartni talab etadi: nom emas, mexanizmni ko'chirish; normativ mustahkamlash nuqtasini oldindan belgilash; o'qituvchi tayyorgarligini ta'minlash.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/uz/docs/-8050769> (murojaat sanasi: 22.08.2026).

2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 2020-yil 23-sentyabr, O'RQ-637-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/docs/-5013007> (murojaat sanasi: 22.08.2026).
3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri / Tarjimonlar A. Irisov, M. Mahmudov, U. Otajon. — Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. — 320 b.
4. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. I tom: Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar / Tarjimon A. Rasulov. — Toshkent: Fan, 1968.
5. Seixas P., Morton T. The Big Six Historical Thinking Concepts. — Toronto: Nelson Education, 2013. — 218 p. — ISBN 978-0-17-654154-5.
6. College, Career, and Civic Life (C3) Framework for Social Studies State Standards. — Silver Spring, MD: National Council for the Social Studies, 2013. — URL: <https://www.socialstudies.org/standards/c3> (murojaat sanasi: 22.08.2026).
7. Wineburg S. Historical Thinking and Other Unnatural Acts: Charting the Future of Teaching the Past. — Philadelphia: Temple University Press, 2001.
8. Reisman A. Reading Like a Historian: A Document-Based History Curriculum Intervention in Urban High Schools // Cognition and Instruction. — 2012. — Vol. 30, No. 1. — P. 86–112. — DOI: 10.1080/07370008.2011.634081.
9. National Core Curriculum for Basic Education 2014. — Helsinki: Finnish National Board of Education, 2014. — URL: <https://www.oph.fi/en/education-and-qualifications/national-core-curriculum-primary-and-lower-secondary-basic-education> (murojaat sanasi: 22.08.2026).
10. History Syllabus, Lower Secondary. — Singapore: Ministry of Education, Curriculum Planning and Development Division, 2021. — URL: <https://www.moe.gov.sg/-/media/files/secondary/syllabuses/humanities/2021-history-lower-secondary-syllabus.pdf> (murojaat sanasi: 22.08.2026).
11. History Syllabus, Upper Secondary. — Singapore: Ministry of Education, Curriculum Planning and Development Division, 2023. — URL: <https://www.moe.gov.sg/-/media/files/secondary/syllabuses/humanities/2023-history-upper-secondary-syllabus.pdf> (murojaat sanasi: 22.08.2026).
12. Barton K.C., Levstik L.S. Teaching History for the Common Good. — Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 2004. — ISBN 978-0-8058-3931-9.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XVII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, sentyabr

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.

XVII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.

2-jild, 17-son (14-sentyabr, 2026-yil). – 132 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 11-sentyabr.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.